Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxnunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes sub’ektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish.....	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Umurov Jasurbek Jamil o'g'li

AJ Poytaxtbank

Amaliyot boshqarmasi boshliq o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri, xususan, strategik boshqaruv tizimini zamonaviylashtirishdagi roli tahlil qilingan. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, bulutli va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalar asosida banklar o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Tadqiqotda raqamli transformatsiyaga mos strategik yondashuvlar, liderlik uslublari, raqamli madaniyat va tashkilotlararo integratsiya masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, strategik boshqaruv, tijorat banklari, innovatsiyalar, sun'iy intellekt, raqamli madaniyat, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article explores how digital transformation is reshaping strategic management systems in commercial banks. It analyzes the integration of advanced technologies such as artificial intelligence, big data, blockchain, and cloud computing in the strategic planning and operations of financial institutions. The paper highlights new leadership styles, the emergence of digital organizational cultures, and adaptive frameworks that support innovation and competitiveness in the banking sector.

Key words: Digital transformation, strategic management, commercial banks, innovation, digital culture, artificial intelligence, financial technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются пути совершенствования стратегического управления коммерческих банков в условиях цифровой трансформации. Освещается влияние технологий, таких как искусственный интеллект, большие данные, блокчейн и облачные сервисы, на принятие стратегических решений. Также анализируются новые модели лидерства, цифровая культура организаций и механизмы адаптации в условиях усиливающейся конкуренции.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, стратегическое управление, коммерческие банки, инновации, цифровая культура, финтех.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda moliya sektori, xususan, tijorat banklari misli ko'rilmagan raqamli o'zgarishlar jarayoniga yuz tutdi. Bu transformatsiya nafaqat bank mahsulotlari va xizmatlariga, balki ularning strategik boshqaruv tamoyillariga ham tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), blokcheyn, bulutli hisoblash texnologiyalari va FinTex (FinTech) kompaniyalarining rivojlanishi banklarning an'anaviy faoliyat mexanizmlarini jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Raqamli transformatsiya bu faqat texnologik o'zgarish emas, balki bu banklar faoliyatining barcha jihatlarini, jumladan, strategik rejalashtirish, boshqaruv uslublari, mijoz bilan ishlash siyosati va tashkiliy madaniyatni o'z ichiga olgan chuqur tizimli yangilanishdir. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar ham ushbu holatni tasdiqlaydi. Xususan, Deloitte tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, bank menejerlarining 87 foizi raqamli transformatsiyani o'z banklari uchun eng ustuvor strategik yo'nalishlardan biri deb baholagan.



Shuningdek, World Bank (2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan banklar o'z mijozlari sonini o'rtacha 25-30 foizga oshirgan hamda operatsion xarajatlarini 20-25 foizga qisqartirishga erishgan. Bu esa strategik boshqaruvni zamon talablariga moslashtirish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Ayni paytda raqamli transformatsiya nafaqat rivojlangan davlatlardagi yirik banklar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda ham Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlar joriy etilishi, masofaviy identifikatsiya, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish va to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish yo'nalishida faol ishlar olib borilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yil yakunlariga ko'ra, bank xizmatlarining 63 foizi raqamli kanallar orqali ko'rsatilganini ma'lum qilgan. Bu esa transformatsiya jarayoni faol ketayotganining yaqqol dalilidir.

Raqamli transformatsiyaning asosiy xususiyati – bu tezkorlik, innovatsionlik va mijoz markaziga yo'naltirilganlikdir. Endilikda banklar uzoq muddatli, rejalashtirilgan strategiyalar o'rniga, moslashuvchan, ma'lumotlarga asoslangan va doimiy ravishda yangilanadigan strategik boshqaruv yondashuvlariga ehtiyoj sezmoqda. Natijada, raqamli madaniyat, innovatsion liderlik, xodimlarni raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash va tashqi FinTex ekotizimlari bilan hamkorlik kabi elementlar zamonaviy strategik boshqaruvning ajralmas qismiga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya – bu shunchaki texnologiyalarni joriy etish emas, balki strategik boshqaruv, mijoz bilan o'zaro aloqalar, xizmatlar yetkazib berish modeli va bankning butun tashkiliy tuzilmasini o'zgartiruvchi omildir. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning yondashuvlari bugungi kunda tijorat banklari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Brynjolfsson va McAfee (2014)lar mashhur "The second machine age" nomli tadqiqotida raqamli texnologiyalarning inson mehnatiga va biznes jarayonlariga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Ular ta'kidlaydiki, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va tarmoq texnologiyalari orqali tashkilotlar o'zlarining iqtisodiy samaradorligini bir necha baravarga oshirishlari mumkin. Banklar misolida esa, bu texnologiyalar kreditlash, xavf tahlili, mijozlarni segmentatsiyalash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Porter va Heppelmann (2015) raqobat strategiyasi nazariyasining asoschisi sifatida, "How smart, connected products are transforming competition" maqolasida raqamli mahsulotlar va xizmatlar tashkilotlar o'rtasidagi raqobatni qanday o'zgartirayotganini tahlil qiladi. Ular bank tizimida aqlli mahsulotlar (mobil ilovalar, AI chatbotlar, blokcheyn asosidagi operatsiyalar) orqali mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatilishi mumkinligini va bu raqamli transformatsiyaning strategik jihatdan markaziy elementga aylanishini ko'rsatadi.

Gomber, Koch va Siering (2018)lar "Digital finance and fintech: current research and future research directions" nomli ilmiy maqolasida raqamli moliya va FinTex texnologiyalarining moliyaviy institutlarga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, FinTex kompaniyalari banklar uchun nafaqat raqobatchi, balki strategik hamkor sifatida ham qaralmoqda. FinTex bilan integratsiyalashgan banklar innovatsiyalarni tezroq joriy etish va moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishda ustunlikka ega bo'lmoqda.

Westerman, Bonnet va McAfee (2014) kabi tadqiqotchilar "Leading digital: turning technology into business transformation" asarida raqamli yetakchilik va transformatsiyaning tashkilotlar uchun qanday strategik imkoniyatlar yaratishini chuqur tahlil qiladi. Ular muvaffaqiyatli raqamli liderlar odatda texnologik investitsiyalarni strategik maqsadlar bilan bog'lay olgan rahbarlardir, deya ta'kidlaydi. Banklarda bu – transformatsiyani faqat IT bo'limi emas, balki strategik boshqaruv darajasida olib borishni anglatadi.

Bain & Company (2022). Ushbu konsalting kompaniyasining "The future of digital banking" hisobotida raqamli transformatsiyani joriy qilgan banklar o'z ROE (Return on Equity – o'z kapitalining rentabelligi) ko'rsatkichlarini raqamli rivojlanmagan banklarga nisbatan 15-25 %ga yuqoriroq darajada saqlayotganliklari ta'kidlangan. Bu esa, strategik boshqaruvda raqamli texnologiyalarni inobatga olish bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifat jihatdan tahliliy yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan 4 ta bank (DBS, Monzo, Tinkoff, Kapital Bank) faoliyatining keys tahlili;
- O'zbekiston va qo'shni davlatlardagi tijorat banklari menejerlari bilan intervyular;
- McKinsey, PwC va BCG tomonidan chop etilgan so'nggi tahliliy hisobotlar asosida strategik model tahlili.



Olingan ma'lumotlar mavzuga oid asosiy to'rtta strategik omil bo'yicha tahlil qilindi: texnologik integratsiya, raqamli madaniyat, mijozga yo'naltirilganlik va strategik moslashuvchanlik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan tijorat banklari faoliyati chuqur tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, strategik boshqaruv tizimlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishda sezilarli natijalar beradi: 1) texnologik integratsiya, 2) mijozga yo'naltirilgan yondashuv, 3) tashkiliy moslashuvchanlik va agile boshqaruv hamda 4) raqamli madaniyat va inson kapitali rivoji.

1. Texnologik integratsiya strategik boshqaruvda samaradorlikni oshiradi.

Bugungi kunda strategik qarorlar qabul qilishda sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar tahlili (big data) va avtomatlashtirilgan tizimlar keng qo'llanilmoqda. Tadqiqotga jalb etilgan banklarning 70 foizi risklarni baholash, kredit reytingini aniqlash va mijozlarni segmentatsiya qilishda sun'iy intellektdan foydalanayotganini bildirgan.

Masalan, Singapurdagi DBS Bankda AI asosida yaratilgan kredit tahlil moduli joriy etilganidan so'ng qarzdorlik ko'rsatkichi 18 %ga pasaygan va qaror qabul qilish tezligi 30 %ga oshgan. Shuningdek, real vaqtda ma'lumotlar oqimini monitoring qilish orqali marketing kampaniyalarining samaradorligi 40 %gacha ortgan.

O'zbekistonda esa bir qator banklar, jumladan, Kapitalbank va Hamkorbank raqamli tahlil modullarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtirmoqda. Ular moliyaviy qarorlar uchun raqamli ko'rsatkichlar asosida prognoz modellaridan foydalanishni boshlagan.

2. Mijozga yo'naltirilganlik bank strategiyasi asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida banklar tobora ko'proq mijoz ehtiyojlari, ularning xulq-atvori va raqamli odatlariga asoslangan yondashuvlarni strategik markazga olib chiqmoqda. Mobil ilovalar, "chatbot"lar, moslashtirilgan xizmat paketlari va tezkor aloqa platformalari orqali banklar o'z mijozlariga individual yondashuvni taklif etmoqda.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan intervyular natijasiga ko'ra, mijozlar bilan doimiy raqamli aloqaga ega bo'lgan banklarda mijoz sodiqligi 25-35 %ga oshgan, shuningdek, tranzaksiyalar soni keskin ko'paygan.

Masalan, Buyuk Britaniyadagi Monzo Bank foydalanuvchilarning ovoz berishi orqali yangi mahsulotlarni joriy etishni strategik asosga aylantirgan va natijada mijozlarni saqlab qolish darajasi 28 %ga oshgan.

3. Agile boshqaruv va tashkiliy moslashuv strategik muvofiqlikni ta'minlaydi.

Raqamli muhitning o'zgaruvchanligi banklarni strategik boshqaruvda moslashuvchan va tezkor tizimlarga o'tishga undamoqda. Ko'plab ilg'or banklar an'anaviy yillik rejalashtirish o'rniga choraklik strategik sikllar (OKR – Objectives and key results) asosida faoliyat olib bormoqda. Bu esa tashqi o'zgarishlarga tez javob berish va strategik muvofiqlikni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotda qatnashgan banklarning 65 foizi hozirda yiliga kamida 4 marotaba strategik ko'rib chiqish sessiyalarini o'tkazayotgani, qarorlar esa real vaqtda monitoring tizimlari asosida qabul qilinayotganini bildirgan. Bunday yondashuv banklarga innovatsion mahsulotlarni tez joriy etish, xatolarni tezda aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

4. Raqamli madaniyat va inson kapitaliga sarmoya muvaffaqiyat kalitidir.

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati bankning faqat texnologik tayyorgarligi emas, balki xodimlarining raqamli kompetensiyasi va tashkiliy madaniyatiga ham bog'liq. Innovatsiyaga ochiqlik, xodimlarning mustaqil fikrlashi va tezkor qaror qabul qilishga undovchi muhit bank ichida raqamli transformatsiyani chuqurlashtiradi.

DBS Bank o'z ichki strategik qadriyatlarini qatorida "GANDALF" madaniyatini shakllantirib, xodimlar motivatsiyasi va innovatsion faoliyatini kuchaytirdi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, bunday yondashuvni qo'llagan banklarda xodimlarning ishdan qoniqish darajasi 1,5 baravar, innovatsion takliflar esa 2-3 baravar ortgan.

O'zbekiston banklarida ham "Digital Academy"lar tashkil etilishi, raqamli treninglar, laboratoriyalar joriy etilishi transformatsiya uchun zarur infratuzilmani yaratmoqda (1-jadval).

Yo'nalish	Ko'rsatkichlar va Natijalar
Texnologik integratsiya	-18 % qarzdorlik, +30 % tezlik, +40 % marketing samaradorligi
Mijozga yo'naltirilganlik	+28-35 % mijozni saqlab qolish, +ko'proq tranzaksiyalar
Agil boshqaruv	+tezkor qarorlar, +strategik moslashuvchanlik
Raqamli madaniyat	+motivatsiya, +innovatsion faollik, -kadrlar aylanishi



Xulosa sifatida, tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyani strategik darajada joriy etgan banklar:

- tezroq qarorlar qabul qilmoqda,
- mijoz ehtiyojlariga moslashuvchan yechimlar taklif qilmoqda,
- ichki jarayonlarini optimallashtirmoqda,
- va bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlab bormoqda.

Bu esa raqamli transformatsiyani bank strategiyasining ajralmas qismi sifatida shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar va ilg'or tajribalar shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya bugungi kunda tijorat banklari uchun tanlov emas, balki strategik zaruratga aylangan. An'anaviy strategik boshqaruv uslublari – uzoq muddatli, qattiq rejalashtirishga asoslangan va bo'linmalarga ajratilgan tizimlar – raqamli muhitda samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Bozordagi tezkor texnologik o'zgarishlar, mijozlarning raqamli odatlari, FinTex kompaniyalari tomonidan yaratilayotgan bosim va yangi xavf-xatarlar banklardan strategik yondashuvda mutlaqo yangi tafakkur va transformatsion liderlikni talab qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli transformatsiyani strategik boshqaruv tizimiga to'liq integratsiya qilgan tijorat banklari quyidagi ustunliklarga erishmoqda:

- Yuqori darajadagi operatsion samaradorlik – sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali banklar ichki jarayonlarni optimallashtirishga erishmoqda;

- Mijozga yo'naltirilgan strategiya – mijoz xatti-harakatlariga asoslangan qarorlar orqali sodiqlik va xizmat sifati oshmoqda;

- Moslashuvchan va agile boshqaruv – qisqa muddatli OKRlar va real vaqtdagi KPI monitoring banklarga dinamik strategik qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda;

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, strategik transformatsiyada muvaffaqiyat faqat texnologik vositalarga emas, balki inson resurslari, madaniyat, liderlik va tashkiliy struktura kabi omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Banklarda raqamli madaniyatni shakllantirish, xodimlarni yangi texnologiyalar bo'yicha uzluksiz o'qitish, tashqi FinTex ekotizimlari bilan hamkorlik qilish, raqamli xavfsizlik va mijoz ma'lumotlarini himoya qilish masalalari strategik darajada hal etilishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- normativ-huquqiy bazani yanada liberallashtirish,
- raqamli infratuzilmani kengaytirish va investitsiyalarni jalb etish,
- banklararo innovatsion hamkorlik platformalarini rivojlantirish,
- mahalliy raqamli mutaxassislar bazasini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiyaga asoslangan strategik boshqaruv modeli banklarga nafaqat zamon bilan hamnafas bo'lish, balki bozordagi yetakchilik pozitsiyasini egallash imkoniyatini ham yaratadi. Transformatsiyani mukammal va chuqur joriy qilgan banklar kelajak moliyaviy tizimining poydevorini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Brynjolfsson, E. & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.
2. Porter, M. E. & Heppelmann, J. E. (2015). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review, October 2015.
3. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2018). Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537–580.
4. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. Harvard Business Review Press.
5. Deloitte (2023). Digital Banking Maturity Report. www.deloitte.com
6. World Bank (2022). Global Financial Development Report 2022: Financial Inclusion. Washington, DC.
7. McKinsey & Company (2023). The State of Digital Transformation in Banking. www.mckinsey.com
8. Bain & Company (2022). The Future of Digital Banking: How Banks Can Capture the Value of Digital Transformation. www.bain.com
9. Accenture (2023). Banking Technology Vision 2023: When Atoms Meet Bits. www.accenture.com
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Bank tizimidagi raqamli xizmatlar bo'yicha statistik axborot. www.cbu.uz
11. Kapitalbank (2023). Yillik faoliyat hisobotlari. www.kapitalbank.uz
12. Harvard Business Review (2022). Why Agile Organizations Perform Better in the Digital Era. HBR Digital Articles



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>